



ZAMONAVIY O'ZBEKISTON MADANIYATIDA NAVOIY MEROSINING O'RNI VA YOSHLARNI TARBIYASIDAGI AHAMIYATLI JIHATLARI

Samarqand davlat chet tillari institute Payariq Xorijiy tillar fakulteti talabasi

Abduxakimova Umida

Annotatsiya. Ushbu maqolada Alisher Navoiy ijodiy merosining zamonaviy O'zbekiston madaniyatidagi o'rni, uning ma'naviy – ma'rifiy hayotga ta'siri, adabiyot, ta'lim, san'at sohalaridagi davomiylik tahlil qilinib, Navoiy g'oyalari hozirgi davr odamlariga qanchalik ta'sir etishi mumkinligi haqida fir yuritiladi.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, madaniyat, ma'naviyat, meros, adabiyot, Yangi O'zbekiston, ma'rifat.

Abstract. This article analyzes the role and significance of Alisher Navoiy's literary heritage in the cultural landscape of modern Uzbekistan. It explores how his ideas and works influence the country's spiritual and educational life, literature and arts today. The study also examines contemporary interpretations of Navoi's legacy and its reflection in state policy, public consciousness and cultural continuity.

Keywords: Alisher Navoi, culture, spirituality, heritage, literature, Uzbekistan, enlightenment.

KIRISH

Alisher Navoiy o'zbek adabiy tilining asoschisi, buyuk mutafakkir, shoir, adolatli davlat arbobi va oliyjanob inson sifatida nafaqat o'z davrida, balki bugungi kunda ham o'z o'rni va ahamiyatini yo'qotmagan ulug'



ijodkordir.Uning boy ijodiy merosi zamonaviy O'zbekiston madaniy hayotining ajralmas qismiga aylangan.Har yili Navoiy tavalludi butun o'lka bo'ylab keng nishonlanadi, asarlari o'rganiladi va turli madaniy – ma'rifiy tadbirlar orqali ommaga yetkaziladi. Bu tadbirlardan ko'zlangan maqsad odamlar shoir ijodiga yanada yaqinroq kirib borib,uning ijod namunalarini o'rganishsa,Navoiyning hayot yo'lidagi adolatlilik,sahovatpeshalik,oliyjanoblik,odamiylik,mehr-muhabbatlilik kabi oliyjanob tuyg'ularni o'z hayotlariga tatbiq qilishsa maqsadga muvofiq bo'ladi.Navoiy ijodi o'quvchini ta'lim-tarbiyaga undaydi,hayotga mehr-muhabbat bilan qarashga o'rgatadi.

Zamonaviy O'zbekistonda ma'naviyatni yuksaltirish yo'lida Alisher Navoiy asarlaridan faol foydalanilmoqda.Uning asarlaridagi axloqiy,tasavvufiy va falsafiy g'oyalar yosh avlodning komil inson bo'lib voyaga yetishishida muhim o'rin egallaydi.Maktab va oliy o'quv yurtlarida Navoiy asarlari maxsus darsliklar orqali o'qitiladi. Maktab yoshidagi o'quvchilar uchun Alisher Navoiy asarlarini o'rganish juda zarur,ayniqsa hozirgi jadal rivojlanish,global o'sish,internet –ijtimoiy tarmoqlar zamonida yosh avlodni ta'lim – tarbiyali qilib o'stirishda,ma'naviyati yuksak qilib tarbiyalashda Navoiy o'gitlari,pandu-nasihatlari,ma'nodor hikmatlari juda muhim ahamiyat kasb etadi.Barchamizga aniq va ravshanki,ta'lim va tarbiya bir-biriga chambarchas bog'liq tushunchalar,ularni bir-birisiz tasavvur qilib bo'lmaydi,qachonki bu ikki tushuncha birlashsa,keyingina maqomi ko'zga tashlanadi.O'zbekistonimizni har jabhada rivojlanishida mukammal blimli,munosib tarbiyali insonlar kerak,shu asnoda Alisher Navoiy hikmatlari yosh avlodni to'g'ri yo'ldan adashmasdan oliy maqsad sari intilishida juda qo'l keladi.tarbiyali insonning qo'lidan yomonlik kelmaydi.Alisher Navoiy asarlaridagi oliyjanob fazilatlarga erishish,yomonliklardan tiyilish, yolg'on so'zlamaslik, do'stga sodiq bo'lish,har ishda aqlga tayanish,vaqtni qadrlash,umr atalmish ne'matni buhuda sarflamaslik,ham ma'nan,ham jisman poklikka erishish yo'lida berilgan saboqlar boshqa davrlardagidan-da ko'proq hozirgi davr o'quvchisi uchun



juda-juda zarur.Hozirda ijtimoiy tarmoqlar orqali olsh mumkin bo`lgan turli axborotlarni o`ziga qay darajada singdirish,bu ma`lumotlarga javob berish uchun insonga yetarli bilim,salohiyat,aql,fahm kerak bo`ladi,aynan shu joyda Alisher Navoiy asarlaridagi hikmatlar,pandu-o`gitlar insonni to`g`ri yo`lga soladi,hayot yo`lida adashmasdan vaziyatlardan maqbul chiqish yo`llarini ko`rsatadi.

Navoiy asarlari shu davrgacha o`zbek adabiyotining manbai bo`lib xizmat qilmoqda.Uning Xamsa asaridagi mavzular ko`plab zamonaviy adiblar tomonidan yangi uslubda davom ettirilmoqda.Asarlari nafaqat o`zbek tilida,balki ingliz,rus,fransuz,turk,fors tillariga tarjima qilinmoqda va xalqaro miqyosda keng o`rganilmoqda.Bu Alisher Navoiy ijodining yuksak saviyada ta`lim-tarbiya olishida jahon yoshlari hayotiga kerak ekanligini va borada muhim omil ekanligini isbotlab beradi

San`at sohasida ham Navoiy siymosi teatr,kino,musavvirlik va xaykaltaroshlik yo`nalishlarida o`z ifodasini topgan bo`lsa,zamonaviy shoir va yozuvchilar ijodida Navoiy ruhi,shukhi sezilib turadi.Navoiy nomli badiiy filmlar,spektakllar,opera va balet asarlari yaratilgan.poytaxt Toshkentdagi Navoiy nomidagi milliy kutubxona,opera va balet teatri,Samarqanddagi Alisher Navoiy haykali bu merosga bo`lgan ehtirom namunalaridir.

O`zbekiston Respublikasi prezidentining farmonlariga binoan Alisher Navoiy tavalludining 580 va 585 yillik yubileylari keng nishonlandi,uning nomi universitetlar,ko`chalar,ilmiy markazlarga berilgan.Bu kabi e`tiroflar davlat darajasida Navoiyning madaniy merosga aylanganini ko`rsatadi va bu hozirgi davr yoshlarini munosib tarbiyalashda Alisher Navoiy ijodini chuqur o`rganish,hayot va jamiyatga tatbiq etish muhim ekanligini belgilab beradi.



XULOSA

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, Alisher Navoiy ijodiy merosi va uning shaxsi zamonaviy O'zbekiston madaniy hayotining ruhiy tayanchlaridan biridir. Uning asarlaridagi g'oyalar bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan bo'lib, har bir yangi avlod uchun tarbiyaviy-axloqiy mezon bo'lib xizmat qilmoqda. Shunday ekan, Navoiy ijodini chuqur o'rganish, targ'ib qilish va uni zamonaviy ruhda talqin qilish dolzarb vazifalardan biridir, chunki Navoiy asarlarini o'qigan yoshlar yuksak ta'lim-tarbiya bilan o'sadi, yuksak ta'lim-tarbiyaga erishgan yoshlar O'zbekistonni har sohada rivojlantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jo'rayev, N. (2004). *Alisher Navoiy va zamonaviy tafakkur*. Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi nashriyoti.
2. Sodiqov, H. (2010). *O'zbek adabiyoti tarixi*. Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.
3. Oripov, A. (2001). *Navoiy – millat g'ururi va iftixori*. Adabiyot va san'at jurnali, 3-son.